XURSHID DO'STMUHAMMAD VA USMON AZIM ASARLARIDA TINISH BELGILARI LINGVOPOETIKASI

Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi 62-umumiy
o'rta ta'lim maktabida ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Maxkamova Dilnavoz Ziyodullo Qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammad va Usmon Azim asarlarida tinish belgilarining lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Badiiy matnda tinish belgilarining faqat grammatik-sintaktik chegaralash vositasi emas, balki muallifning individual uslubini, qahramon ruhiyati va ichki kechinmalarini, nutqning ohangini hamda emotsional-ekspressiv mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim grafik-stilistik vosita ekanligi yoritiladi. Xurshid Do'stmuhammad nasrida ko'p nuqta, tire, undov va so'roq belgilarining qahramon ruhiy holatini tasvirlash, dialoglarda tabiiylik yaratish, sukut, ikkilanish va psixologik keskinlikni ifodalashdagi vazifalari tahlil qilinadi. Usmon Azim she'riyatida esa tinish belgilarining poetik ritm, lirik qahramon kechinmasi, murojaat, hayqiriq, savol, sukut va dramatik qarama-qarshilikni kuchaytirishdagi o'rni ochib beriladi. Ikki ijodkor punktuatsiyasining umumiy hamda o'ziga xos jihatlari qiyoslanib, tinish belgilarining badiiy matnning mazmuniy-estetik strukturasidagi ahamiyati ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, punktuatsiya, tinish belgilari, badiiy matn, muallif punktuatsiyasi, ko'p nuqta, tire, undov belgisi, so'roq belgisi, emotsional-ekspressivlik, individual uslub, grafik sukut, Xurshid Do'stmuhammad, Usmon Azim.*

Kirish.

Badiiy matn tilning barcha imkoniyatlarini o'zida namoyon etuvchi murakkab estetik tizimdir. Unda so'z, grammatik shakl, sintaktik qurilma, intonatsiya va grafik vositalarning har biri muallifning badiiy maqsadini amalga

oshirishga xizmat qiladi. Shunday vositalardan biri tinish belgilaridir. An’anaviy tilshunoslikda punktuatsiya asosan yozma nutqni grammatik, mantiqiy va intonatsion jihatdan qismlarga ajratish vositasi sifatida talqin etilgan. Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda esa tinish belgilari badiiy matnning semantik, emotsional-ekspressiv va estetik qurilishida faol qatnashadigan birliklar sifatida baholanmoqda.

Punktuatsiya yozma nutqning mazmunini to’g’ri anglash, sintaktik qismlarni ajratish va muallif ko’zda tutgan ohangni o’quvchiga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi. B. Baxriddinova zamonaviy o’zbek punktuatsiyasini tahlil qilishda tinish belgilarining grammatik me’yorlar bilan bir qatorda mazmun va intonatsiya bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi [1, 21-b.]. N. Mahmudov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov va D. Andaniyozova tomonidan ishlab chiqilgan punktuatsion me’yorlarda ham tinish belgilarining sintaktik qurilish, mazmuniy munosabat va nutq ohangi bilan uzviy aloqasi asoslab berilgan [2, 49–56-b.].

Badiiy matnga kelganda mazkur vazifalar yanada kengayadi. Yozuvchi yoki shoir ayrim holatlarda umumiy punktuatsion me’yor doirasida qolgan holda tinish belgisiga qo’shimcha poetik yuk beradi, boshqa holatlarda esa individual uslub talabidan kelib chiqib, belgining noan’anaviy yoki kombinatsiyalashgan shakllaridan foydalanadi. Natijada nuqta, vergul, tire, so’roq, undov yoki ko’p nuqta oddiy grafik vosita bo’lib qolmay, personajning ruhiy holati, muallif munosabati, lirik kechinma, sukut, ikkilanish, iztirob va hayajonni anglatadigan poetik birlikka aylanadi.

Badiiy matn lingvopoetikasi masalalarini tadqiq qilgan M. Yo’ldoshev til birliklarini matnning estetik vazifasi bilan uzviy holda o’rganish zarurligini alohida ta’kidlaydi [4, 25-b.]. Shu nuqtayi nazardan tinish belgilarini ham faqat imlo yoki sintaksis masalasi sifatida emas, balki badiiy mazmunni shakllantiruvchi va o’quvchi idrokiga ta’sir qiluvchi vosita sifatida o’rganish muhimdir.

Xurshid Do’stmuhammad va Usmon Azim zamonaviy o’zbek adabiyotida individual uslubi yaqqol namoyon bo’lgan ijodkorlardir. Xurshid Do’stmuhammadning “Jajman”, “Bozor”, “So’roq”, “Oromkursi”, “Chayongul”

singari asarlarida qahramon ruhiyatini tasvirlash, ichki nutq va dialoglarni tabiiy shakllantirishda punktuatsion vositalarning imkoniyatlaridan faol foydalaniladi [7; 9]. Usmon Azim she'riyatida esa poetik nutqning jo'shqinligi, dramatizmi va lirik kechinmalarning keskin almashinuvi tinish belgilarining faol ishtirokida yuzaga keladi [8].

Mazkur maqolaning maqsadi Xurshid Do'stmuhammad va Usmon Azim asarlarida tinish belgilarining lingvopoetik vazifalarini aniqlash, ularning muallif individual uslubini yuzaga chiqarishdagi rolini yoritish hamda nasriy va poetik matndagi punktuatsion xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek tilshunosligida punktuatsiya masalalarini ilmiy o'rganish ancha uzoq tarixga ega. K. Nazarovning tinish belgilari va yozma nutqqa bag'ishlangan tadqiqotlarida punktuatsiyaning grammatik, mazmuniy va intonatsion asoslari yoritilib, tinish belgilarining yozma nutqni to'g'ri shakllantirishdagi o'rni belgilangan [3, 51-b.]. Keyingi tadqiqotlarda mazkur qarashlar rivojlantirilib, tinish belgilarining stilistik va pragmatik imkoniyatlariga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi.

B. Baxriddinovaning "Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari" asarida hozirgi o'zbek punktuatsiyasining ilmiy-nazariy masalalari, tinish belgilarining vazifalari va ularni qo'llash tamoyillari batafsil tavsiflanadi [1]. Mazkur tadqiqot punktuatsion vositalarning faqat sintaktik tuzilishga emas, balki mazmun va intonatsiyaga ham bog'liqligini ko'rsatishi bilan muhim ahamiyatga ega.

M. Mamatova punktuatsion tizimni o'rganar ekan, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash sintaktik qurilmani tushunish, nutq mazmunini aniqlashtirish va kommunikativ maqsadni to'liq ifodalash uchun zarurligini qayd etadi [10]. Bu xususiyat badiiy matnda yanada murakkab tus oladi, chunki ijodkor tinish belgisidan til me'yoriga rioya qilish bilan bir qatorda estetik ta'sir yaratish maqsadida ham foydalanadi.

So'nggi lingvopoetik tadqiqotlarda "muallif punktuatsiyasi" tushunchasi alohida e'tibor markaziga chiqmoqda. Muallif punktuatsiyasi ijodkorning tinish

belgilaridan umumiy me’yor doirasida yoki muayyan uslubiy maqsadga ko’ra individual foydalanishini anglatadi. Bunday holatda belgining grammatik vazifasi bilan birga qo’shimcha emotsional, semantik yoki poetik mazmuni yuzaga keladi.

I. Nurmurotov va D. Maxkamova Xurshid Do’stmuhammad nasridagi muallif punktuatsiyasini tadqiq etib, ko’p nuqta, so’roq, undov hamda tire badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqarish, ruhiy holat va grafik sukutni ifodalashda muhim vosita bo’lishini qayd etadilar [5]. Bunda tinish belgisi gapni yakunlovchi yoki qismlarga ajratuvchi vositadan badiiy tasvir vositasiga aylanadi.

I.Nurmurotov va Z. Eshmurodova esa tinish belgilarining uzual va lingvopoetik vazifalarini o’rganib, poetik matnda ijodkorning individual punktuatsion tanlovi matnning ekspressivligi, ritmi va semantik qatlamlarini shakllantirishini ko’rsatadilar [6]. Demak, badiiy matnda bir xil tinish belgisi turli vaziyatlarda turlicha poetik vazifa bajarishi mumkin. Bu hodisa tinish belgilarining polifunksionalligidan dalolat beradi.

Xurshid Do’stmuhammad asarlari nasriy tabiatga ega bo’lgani sababli undagi punktuatsiya, avvalo, personaj nutqi, dialog, ichki monolog va psixologik tasvir bilan chambarchas bog’lanadi. Usmon Azim ijodida esa she’riy satr, ritm, pauza, murojaat va hissiy portlash muhim bo’lganligi sababli tinish belgilari poetik intonatsiyaning grafik ifodachisi sifatida faolroq namoyon bo’ladi. Shu jihatdan ikki ijodkor asarlarining qiyosiy tahlili tinish belgilarining nasr va nazmdagi lingvopoetik imkoniyatlarini aniqroq ko’rsatishga xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili

Xurshid Do’stmuhammad nasrining muhim xususiyatlaridan biri qahramonning ichki dunyosini bevosita voqea bayoni orqali emas, uning nutqi, o’y-kechinmalari, sukuti, ikkilanishi va psixologik reaksiyalari orqali ochib berishga intilishdir. Ana shunday o’rinlarda tinish belgilarining lingvopoetik ahamiyati kuchayadi.

Adib nasrida, ayniqsa, **ko’p nuqta** faol poetik vazifa bajaradi. Ko’p nuqta grammatik jihatdan tugallanmagan yoki davom ettirilishi mumkin bo’lgan fikrni anglatsa, badiiy matnda u sukut, ikkilanish, ruhiy bosim, xotiraning uzilib-qayta

tiklanishi, qo’rquv, hayajon yoki aytilmay qolgan fikrni ham bildiradi. Shuning uchun Xurshid Do’stmuhammad qahramonlari nutqida ko’p nuqtaning paydo bo’lishi ko’pincha personajning ruhiy holati bilan bog’liq bo’ladi [5].

“Jajman” hikoyasidagi dialogik nutqda buning xarakterli ko’rinishini kuzatish mumkin. Personajlardan birining “**Yo’q!.. Yo’q!.. Shilib ketibdi!**” tarzidagi nutqida ko’p nuqta va undov belgisi ketma-ketligi grammatik vazifadan tashqari vahima, sarosima va kuchli hissiy holatni namoyon etadi [9, 135-b.]. Agar ushbu ifoda oddiy nuqta bilan berilganda, personaj nutqidagi ichki titroq va keskinlikning muhim qismi yo’qolgan bo’lardi. Demak, mazkur vaziyatda ko’p nuqta personaj ruhiyati tasvirining grafik vositasiga aylangan.

Xurshid Do’stmuhammad nasrida **so’roq belgisi** ham oddiy ma’lumot talab qiluvchi so’roq gapni ifodalash bilan cheklanmaydi. U qahramonning shubha-gumoni, o’z-o’ziga savoli, hayratlanishi, muayyan hodisani anglay olmasligi yoki ichki qarama-qarshiligini namoyon etishi mumkin. Bunday savollarda javob olishdan ko’ra ruhiy holatni ochish muhimroq bo’ladi. Natijada ritorik va ichki savollar matnda psixologik dinamizm hosil qiladi.

Adib nasrida **undov belgisi** qahramon nutqidagi emotsional holatni kuchaytiradi. G’azab, qo’rquv, quvonch, ajablanish, chaqiriq va norozilik holatlarida undov belgisi intonatsiyaning grafik shakliga aylanadi. Ayniqsa, dialoglarda undov belgisining qo’llanishi personajlar o’rtasidagi munosabatning keskinligini o’quvchiga bevosita his qildirish imkonini beradi.

Tire esa Xurshid Do’stmuhammad nasrida bir necha lingvopoetik vazifani bajaradi. Birinchidan, u dialogdagi replikalarni ajratadi. Ikkinchidan, gap ichida kutilmagan semantik burilish yoki ta’kidni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, qahramon tafakkuridagi keskin o’zgarishni, bir fikrdan ikkinchisiga o’tishni grafik jihatdan ko’rsatadi. Shu sababli tire adib matnida faqat sintaktik ajratish vositasi emas, balki mazmuniy qarama-qarshilik va psixologik pauzani ifodalovchi vositaga ham aylanadi.

Xurshid Do’stmuhammad asarlarida dialoglarning ko’pligi muallif punktuatsiyasining imkoniyatlarini kengaytiradi. Personaj nutqi doimo grammatik

jihatdan mukammal va tekis shaklda qurilmaydi. Tabiiy og'zaki nutqda bo'lgani kabi, so'zning uzilishi, takrorlanishi, savolga savol bilan javob berish, gapni tugatmasdan qolish kabi vaziyatlar uchraydi. Muallif ko'p nuqta, tire, undov va so'roq belgilarining turli kombinatsiyalaridan foydalanish orqali ana shu og'zaki nutq xususiyatlarini yozma matnda qayta tiklaydi. Natijada qahramon nutqi sun'iy emas, hayotiy va individual tus oladi.

Usmon Azim she'riyatida punktuatsiyaning lingvopoetik funksiyasi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shoir poetik nutqida kuchli hissiy dinamika, murojaat, savol, iztirob, hayrat va dramatik kayfiyat muhim o'rin tutadi. Bunday poetik holatlarni ifodalashda so'z va obrazlar bilan bir qatorda tinish belgilarining o'rni ham sezilarli.

She'riy matnda **ko'p nuqta** ko'pincha fikrning mantiqiy tugallanmaganligini emas, hissiy davomiylikni anglatadi. Shoirning fikri grafik jihatdan to'xtagan bo'lsa-da, tuyg'u o'quvchi tasavvurida davom etadi. Shu jihatdan ko'p nuqtani "grafik sukut" shakli sifatida baholash mumkin [5]. Bunday sukut lirik qahramonning aytishga so'z topolmay qolishi, chuqur o'yga cho'mishi, sog'inch yoki iztirob holatining so'z doirasidan chiqib ketishini anglatadi.

Usmon Azim she'riyatidagi **undov belgisi** hissiy-ekspressivlikni shakllantiruvchi eng faol vositalardan biridir. Shoirning lirik qahramoni ko'pincha olam, inson, Vatan, sevgi, tabiat yoki o'z qalbiga murojaat qiladi. Bunday murojaatlarda undov belgisi satrning intonatsion cho'qqisini belgilaydi. Natijada she'r kitobxon tomonidan shunchaki o'qilmaydi, balki ichki ovoz, hayqiriq yoki chaqiriq sifatida qabul qilinadi.

So'roq belgisi Usmon Azim poetikasida lirik tafakkurning muhim grafik belgilaridan biridir. Shoir she'riyatidagi savollarning katta qismi oddiy javob olish uchun emas, inson va hayot haqidagi falsafiy mushohadani kuchaytirish, lirik qahramonning ichki ziddiyatini namoyon qilish yoki o'quvchini poetik muloqotga jalb etish vazifasini bajaradi. Shu sababli ritorik savol bilan yakunlangan satr semantik jihatdan oddiy darak gapga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim poetik holatlarda **so'roq va undov belgilarining kombinatsiyasi**

ham alohida ekspressiv mazmun hosil qiladi. Bunday birikmada savol bilan birga hayrat, norozilik, iztirob yoki keskin hissiy munosabat yuzaga chiqadi. Bu hodisa tinish belgilarining polifunksionalligini yaqqol ko'rsatadi. Birgina punktuatsion kombinatsiya bir vaqtning o'zida ham so'roq, ham emotsional munosabatni ifodalashi mumkin [6].

Usmon Azim she'riyatida **tire** poetik pauzani yaratish, mazmuniy qarama-qarshilikni kuchaytirish va lirik qahramon fikridagi burilishni ko'rsatishda muhimdir. She'riy nutqda satrning o'zi ham pauza hosil qilishi mumkin, biroq tire bilan berilgan qo'shimcha to'xtam poetik ohangni yanada keskinlashtiradi. Shu orqali muallif so'zlar orasidagi mantiqiy bog'lanishdan tashqari hissiy bog'lanishni ham tashkil etadi.

Ikki ijodkor punktuatsiyasini qiyoslash natijasida ularning tinish belgilaridan foydalanishida umumiylik va farqlar mavjudligi kuzatiladi. Umumiylik shundaki, har ikki ijodkor tinish belgilarining me'yoriy vazifasi bilan chegaralanib qolmaydi. Ko'p nuqta ularda sukut va tugallanmagan hissiy holatni, undov kuchli emotsiyani, so'roq ichki izlanish va shubhani, tire esa pauza hamda semantik burilishni ifodalaydi.

Farqli jihat esa mazkur belgilar faoliyat ko'rsatadigan matn tabiatida namoyon bo'ladi. Xurshid Do'stmuhammad nasrida punktuatsiya asosan personaj xarakteri, dialog va psixologik tasvirni shakllantiradi. Usmon Azim she'riyatida esa tinish belgilari lirik intonatsiya, ritm va hissiy holat bilan kuchliroq bog'lanadi. Birinchisida o'quvchi personaj nutqidagi pauza va uzilishlar orqali uning ruhiyatini idrok etsa, ikkinchisida poetik pauza bevosita lirik "men"ning kechinmasiga qo'shilib ketadi.

Xurshid Do'stmuhammad nasrida gapning uzilib qolishi ko'pincha qahramonning gapira olmasligi, ikkilanishi yoki atrofdagi vaziyat ta'siriga tushishi bilan izohlanadi. Usmon Azim she'rlarida esa xuddi shunday grafik uzilish fikrning cheksizligi, hissiyotning so'z bilan to'liq ifodalab bo'lmasligi yoki poetik sukut sifatida talqin qilinishi mumkin. Demak, tinish belgisining lingvopoetik mazmunini belgilashda matnning janriy xususiyati ham muhimdir.

Tahlillar tinish belgilarini alohida holda emas, balki matndagi leksik, grammatik va intonatsion birliklar bilan yaxlitlikda tadqiq qilish lozimligini ko’rsatadi. Masalan, ko’p nuqtaning o’zi doimo iztirobni ifodalamasligi mumkin. Uning qanday poetik vazifa bajarishi gapning lug’aviy tarkibi, qahramonning ruhiy vaziyati va undan oldingi hamda keyingi kontekst bilan belgilanadi. Xuddi shuningdek, undov belgisi ham har bir o’rinda quvonchni anglatmaydi; u g’azab, qo’rquv, alam, buyruq yoki hayratni ifodalashi mumkin. Bunday polifunksionallik punktuatsion vositalarning badiiy imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini ko’rsatadi [5; 6].

Shuningdek, tinish belgilarining badiiy qiymati muallifning individual uslubi bilan bevosita bog’liq. Adib yoki shoirning qaysi belgini qanday vaziyatda va qay darajada faol ishlatishi uning badiiy tafakkur usulining bir qismiga aylanadi. Shu ma’noda muallif punktuatsiyasini ijodkor idiostilining grafik sathi deb baholash mumkin.

Xurshid Do’stmuhammad nasrida psixologik tasvirga xizmat qiladigan uzilishlar, savollar, emotsional dialoglar va grafik sukut personajlarning murakkab ichki dunyosini tasvirlashga ko’maklashadi. Usmon Azim she’riyatida esa tinish belgilari poetik nutqning shiddati, ritmik harakati, dramatizmi va hissiy amplitudasini belgilaydi. Har ikkala holatda ham punktuatsiya asarning estetik ta’sirchanligini oshiruvchi muhim lingvopoetik vositaga aylanadi.

Xulosa

Xurshid Do’stmuhammad va Usmon Azim asarlaridagi tinish belgilarining lingvopoetik tahlili punktuatsiyani faqat yozma nutqning grammatik-sintaktik vositasi sifatida tushunish yetarli emasligini ko’rsatadi. Badiiy matnda tinish belgilari semantik, intonatsion, emotsional-ekspressiv va estetik vazifalarni ham bajaradi.

Xurshid Do’stmuhammad nasrida ko’p nuqta, so’roq, undov va tire personajlarning ruhiy holatini ochish, dialogga tabiiylik berish, qahramon nutqidagi ikkilanish, qo’rquv, hayajon, sukut va keskinlikni ko’rsatishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ko’p nuqta va boshqa belgilar kombinatsiyasi orqali yozuvchi

personajning ichki holatini grafik shaklda ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Natijada tinish belgisi psixologik tasvirning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Usmon Azim she'riyatida tinish belgilarining vazifasi poetik intonatsiya va lirik kechinmalar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Undov belgisi hissiy ko'tarinkilik va murojaatni, so'roq belgisi falsafiy mushohada va ichki izlanishni, ko'p nuqta grafik sukut va hissiyot davomiyligini, tire esa poetik pauza va semantik qarama-qarshilikni ifodalaydi.

Ikki ijodkor punktuatsiyasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, tinish belgilarining muayyan poetik vazifalari umumiy bo'lsa-da, ularning matnda voqelanish shakli janr xususiyatlari bilan belgilanadi. Nasrda punktuatsiya ko'proq personaj nutqi va psixologik tasvirga, she'riyatda esa ritm, ohang va lirik kechinmaga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Xurshid Do'stmuhammad va Usmon Azim ijodida tinish belgilari muallif individual uslubining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning lingvopoetik imkoniyatlarini o'rganish badiiy matnning mazmuniy-estetik qatlamlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Punktuatsion vositalarning bunday tadqiqi o'zbek lingvopoetikasi, matn tilshunosligi va individual uslub masalalarini o'rganish uchun ham muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baxriddinova B. **Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari.** – Toshkent: Akademnashr, 2015.

2. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. **O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya).** – Toshkent: Zamin nashr, 2021.

3. Nazarov K. **Tinish belgilari va yozma nutq.** – Toshkent: Fan, 1974.

4. Yo'ldoshev M. **Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi:** filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2009.

5. Nurmurotov I.B., Maxkamova D.Z. **Xurshid Do'stmuhammad nasrida muallif punktuatsiyasi va emotsional-ekspressivlik** // Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2026. – 4-jild, 5-son. – B. 1041–1049.

6. Nurmurotov I., Eshmurodova Z. **Lingvopoetik maqsadning voqelanishida tinish belgilarining uzual funksiyalari** // Educational Yield Insights & Breakthroughs. – 2026. – Vol. 1, No. 1.

7. Do’stmuhammad X. **Bozor: roman.** – Toshkent: Sharq, 2000.

8. Azim U. **Saylanma.** – Toshkent: Sharq, 1995. – 432 b.

9. Mirzayeva Z., Jalilov K. **Adabiyot. Ijod maktablarining 11-sinfi uchun darslik. Ikkinchi qism.** – Toshkent, 2022.

10. Mamatova M. **O’zbek tilida tinish belgilari (punktuatsiya)** // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – 2-jild, 12-son. – B. 637–643.